Pardayev To'liqin Nasirovich, Farxodov Farrux Furqatovich, Nomozov Abduvohid bdurazzoq o'g'li	
Механизмы устойчивого управления малым и средним бизнесом в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта.....	852
Зокирова Фарангиз Тулкиновна	
Yashil bank xizmatlari va uni joriy etish bilan bog'liq muammolar.....	862
Makhmudova Mukhlisa Kodirjon kizi	
Barqaror qishloq xo'jaligi ta'minot zanjirlarida transport tizimlarini optimallashtirish.....	867
Turdiyeva Irodaxon Ismoil qizi	
Moliyaviy rejalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni.....	874
Pardayev Jamshid Muzaffarovich	
Mintaqa sanoatida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va infratuzilmasini tashkil etish.....	881
Salayev Jasurbek Komilovich	
Surxondaryo viloyatida 2010–2024-yillardagi yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy statistik tahlili.....	888
Ismoilov Davronbek Ilxomjon o'g'li	
Yashil obligatsiyalar va barqaror moliyalashtirishning davlat qarzi siyosatiga ta'siri.....	893
Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	
Модели Альтмана и Таффлера как инструмент диагностики финансовой устойчивости предприятий.....	897
Утемуратова Бибихон Даниловна	
Individual tadbirkorlik va mustaqil bandlik asosida olinadigan daromadlarni soliqqa tortishning fundamental asoslari.....	903
Yakubov San'abek Ravshanbekovich	
China's trade relations with Central Asia: an empirical analysis based on the trade gravity model.....	912
Ye Maoqing	
O'zbekistonda turizm sohasida smart texnologiyalar joriy etishning holati va yo'nalishlari.....	920
Qutbiddinov Shamsiddin Kamoliddin o'g'li	
Application of modern information systems in the assessment of the technical condition of the equipment of electrical energy networks.....	924
Sobirov Muzaffar Azatovich	
Стратегическое управление экономическим потенциалом Узбекистана.....	932
Садуллаева Муслимахон Саидамировна	
Auditda raqamli texnologiyalarni qo'llash tarixi va istiqbollari.....	936
Muydinov Erkin Djамaldinovich	
Bank majburiyatlari va aktivlarining vaqtinchalik nomutanosibliklari riskini kamaytirish.....	940
Ibrohimov D.M.	
Priority directions and legal bases of improving of the tax system of the Republic of Uzbekistan.....	945
Sadikov Iskandar Gayratovich	
Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik va bandlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash.....	950
Karshiyev Keldiyor Eshpulatovich	
O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish uchun ijtimoiy himoya va mehnat bozoriga kirishni kuchaytirish.....	954
Mamashokirova Iroda Samar qizi	
Soliq ma'murchiligi va raqobat muhitining o'zaro bog'liqligini nazariy asoslari.....	958
Donaboyev Jahongir Husan o'g'li	
Региональный туристский кластер – как инструмент повышения эффективности экономики региона.....	965
Юсупова Нигина Тажиевна	
Bank tizimida esg omillarining samaradorligini oshirishda marketing tadqiqotlaridan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari.....	971
Xoliyov Murod Qahramon o'g'li	



Теоретические взгляды на цифровую экономику, цифровую трансформацию	977
Шарипова Шахло Истамовна	
Qoraqalpog'iston Respublikasining raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari va strategik yo'nalishlari.....	982
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
Mintaqalar transport tizimini kompleks rivojlantirish istiqbollarini tadqiq etishning ilmiy-uslubiy asoslari.....	986
Rahmonov Rasul Ne'matovich	
Loyiha boshqaruvida amaliy misollar orqali jinoyat holatlarini tahlili	994
To'yqulov Abbosjon Ali o'g'li	
Advancing tourist safety management in Uzbekistan's growing tourism industry: a systems theory approach.....	999
Laylo Primova	
Qoraqalpog'iston Respublikasida maishiy xizmatlar sifatini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishdagi muammolar.....	1006
Yerejepova Bibisara Abibullayevna	
Основные проблемы и вызовы в создании умных городов	1010
Хакбердиева Нозима Кахрамоновна	
Qurilish obyekti smeta narxlarini aniqlashdagi muammolar va ularning oqibatlarini.....	1015
Asadova Maftuna Sa'dullaevna	
Mintaqani barqaror rivojlantirishda paxta-to'qimachilik klasterlari salohiyatini oshirish.....	1020
Ismailov Temur Pulatovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlari samaradorligi: statistik ko'rsatkichlar va ekonometrik modellarning tahlili	1024
Sharipov R.S.	
Sanoat infratuzilmasining tarkibiy tuzilishi va tartibga solish mexanizmlari.....	1030
Rasulov Jamshid Karimovich	
To'qimachilik sanoati korxonalarida eksport salohiyatini rivojlantirishda boshqaruv jarayonlarini o'ziga hos xususiyatlari.....	1036
Salimjonova Zilolaxon Salimjon qizi	
Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi tomonidan so'ngi yillarda amalga oshirilgan ishlar moliyaviy tahlili	1040
Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining rivojlanishni boshqarish tizimini takomillashtirish.....	1045
Smetov Murat Inyatovich	
Sanoat investitsion salohiyatini amalga oshirish mexanizmining mahalliy va xorijiy tajribalarini qiyosiy tahlili.....	1050
Bayniyazova Malika Polatovna	
Korxonalarda raqamli marketing strategiyalarining shakllanishi va ularning bozor raqobatbardoshligiga ta'siri	1056
Mamadjanova Tuyg'unoy Axmadjanovna	
Руководство страховыми операциями: стратегический подход	1062
Тулаев Дилшод Юсуфович	
Sanoatni rivojlantirishda innovatsion boshqarishni takomillashtirish strategiyasi.....	1068
Qalmuratov Baxtiyar Seytmuratovich	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli chakana xizmatlarni takomillashtirish yo'llari.....	1073
Axmedov G'ofurjon Gulomjonovich	
Maktab o'quv dasturlariga turizm va mehmondo'stlik tarmog'ini integratsiyalashning soha rivojidadagi ahamiyati	1078
Nilufar Raxmonova Yorqinovna	



MAKTAB O'QUV DASTURLARIGA TURIZM VA MEHMONDO'STLIK TARMOG'INI INTEGRATSIYALASHNING SOHA RIVOJIDAGI AHAMIYATI

Nilufar Raxmonova Yorqinovna

Buxoro davlat universiteti magistranti

Email: nilufarraxmonova280@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada sayohat va turizmni umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturiga integratsiyalash afzalliklari jahon davlatlarida qo'llanilgan amaliy tajriba asosida yoritib berilgan. Bundan tashqari, ushbu tashabbusga nisbatan Butunjahon Turizm Tashkiloti hamda tashkilotga hamkor institutlarning tavsiyalari va tadqiqot natijalari tahlil qilingan. O'rganilgan materiallar natijasida maktab davridan boshlab o'quvchilarda mehmondo'stlik sanoati to'g'risida xabardorlikni shakllantirish bo'yicha zarur takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm, kadrlar, xabardorlik, fan, maktab, ta'lim, Butunjahon Turizm Tashkiloti, xalqaro tajriba.

Abstract: This article highlights the advantages of integrating travel and tourism into the general secondary education curriculum, based on practical experiences applied in different countries of the world. In addition, the recommendations and research findings of the World Tourism Organization and its partner institutions regarding this initiative are analyzed. Based on the studied materials, necessary proposals have been developed to foster awareness of the hospitality industry among students from their school years.

Key words: tourism, personnel, awareness, subject, school, education, World Tourism Organization (UN Tourism), international experience.

Аннотация: В данной статье освещены преимущества интеграции путешествий и туризма в учебную программу общего среднего образования на основе практического опыта, применяемого в различных странах мира. Кроме того, проанализированы рекомендации и результаты исследований Всемирной туристской организации и её партнёрских институтов в отношении данной инициативы. По результатам изученных материалов разработаны необходимые предложения по формированию у школьников осведомлённости об индустрии гостеприимства с ранних лет обучения.

Ключевые слова: туризм, кадры, осведомлённость, предмет, школа, образование, Всемирная туристская организация, международный опыт.

KIRISH

Turizm – hordiq chiqarish, yangi bilim va ko'nikmalarni o'rganish bilan bog'liq faoliyat turi sifatida ta'riflanib, sayohat va turizm bozori yirik iqtisodiy bozor turlaridan biri hisoblanadi. Jahon Sayohat va Turizm Kengashi ma'lumotlariga ko'ra (WTTC, 2025), 2024-yilda sayohat va turizmning jahon YAIMiga qo'shgan hissasi 10,9 trillion AQSh dollarini tashkil etdi. Ulush jihatidan, sayohat va turizm jahon iqtisodiyotining 10 foizini tashkil etdi. Sayohat va turizm bandlikning muhim manbayi hamdir. 2024-yilda ushbu soha dunyo bo'yicha jami 357 million ish o'rnini qo'llab-quvvatladi, bu esa taxminan har 10 ta ish o'rnidan 1 tasiga teng.

Turizmni milliy iqtisodiyotning maxsus ixtisoslashgan tarmog'iga aylantirish orqali ko'pgina jahon davlatlari mahalliy aholining ish bilan bandlik darajasini oshirishga, milliy moddiy hamda nomoddiy madaniy boyliklarning xalqaro nufuzini kuchaytirishga erishmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Turizm agentligi (keyingi o'rinlarda "agentlik") vakillari ta'kidlashicha, sayohat va turizm industriyasida malakali kadrlar yetishmovchiligi, aholi



o'rtasida sohaning yuqori iqtisodiy samaradorlik darajasi to'g'risida xabardorlikning sustligi jahon miqyosida yuzaga kelayotgan sohaga aloqador muammolardan biridir.

Ushbu muammoga yechim sifatida agentlik tomonidan turistik salohiyati yuqori bo'lgan davlatlarda turizmni o'rta ta'lim maktablarida fan sifatida joriy etish hamda kasbga yo'naltiruvchi dasturlarda asosiy yo'nalishlardan biri sifatida targ'ib etish chora-tadbirlari taklif etilgan. Taklif etilgan metodlar hamda xorijiy davlatlar ta'lim tizimida amaliy qo'llanilgan dasturlarni o'rganish natijasida zarur xulosalar ishlab chiqildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda turizm va mehmondo'stlikning milliy iqtisodiyotdagi o'rni o'sib borayotgani ko'plab xalqaro va mintaqaviy tadqiqotlarda e'tirof etilgan. OECD tomonidan 2024-yilda chop etilgan "Tourism Trends and Policies" hisobotida turizmning barqaror iqtisodiy o'sishga qo'shadigan hissasi, xususan, ish o'rinlari yaratish, hududlarni rivojlantirish va ijtimoiy birlikni mustahkamlashdagi roli alohida ta'kidlangan. Shu boisdan, turizm sohasi bo'yicha kompetentsiyalarni ta'lim tizimiga, ayniqsa, maktab bosqichidan boshlab kiritish zarurligi ilmiy manbalarda keng muhokama qilinmoqda.

Turizm va mehmondo'stlikni maktab o'quv dasturlariga integratsiyalashning maqsadi ikki asosiy yo'nalishda izohlanadi. Birinchisi, o'quvchilarda kelajakda mehnat bozoriga kirish uchun zarur bo'lgan kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishdir. Ikkinchisi esa madaniy-ma'naviy xabardorlikni oshirish, barqaror turizm haqidagi tushunchalarni yosh avlod ongiga singdirishdir. Pinto o'z tadqiqotlarida maktab bosqichidagi turizm ta'limini "lifelong learning" — ya'ni uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini sifatida talqin etadi va uni keyingi bosqichlardagi ta'lim bilan uzviy bog'lash orqali kasbiy yo'naltirish samaradorligini oshirish mumkinligini asoslaydi.

Empirik dalillar ham maktablarda turizm ta'limini kiritishning foydalarini tasdiqlaydi. Masalan, Ispaniyada Carmen Ramis tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'rta ta'lim dasturlarida turizmga oid mavzular yetarlicha kiritilmagani qayd etilgan. Biroq, hududiy iqtisodiyotning turizmga bog'liqligi oshgani sari maktablarda turizm fanlarini kengaytirish ehtiyoji ham ortib bormoqda. Jordaniyada esa Bassem Al-Sheikh tomonidan o'tkazilgan tracer study natijalari turizm va mehmondo'stlik bo'yicha kasbiy o'quv dasturlarini bitirgan yoshlarning bandlikka kirish jarayonida ustunlikka ega bo'lganini ko'rsatadi. Tadqiqotlarda, ayni paytda, ta'lim sifati va sanoat bilan hamkorlik darajasi bitiruvchilarning mehnat bozorida muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qilishi ta'kidlangan.

Xorijlik olimlar F.Darbellay va M.Stock (2012) tomonidan turizm tabiatan murakkab fanlararo soha ekani ta'kidlanadi. Olimlar turizmni o'rganishda faqat turli fanlar yondashuvlarini birlashtirish emas, balki fanlararo chegaralarda yangi bilimlarni hamkorlikda yaratish zarurligini ilgari suradi. Bundan tashqari, tadqiqotchilarni alohida fanlar doirasidan chiqishga undab, turizm hodisalarini birgina nuqtai nazardan to'liq anglab bo'lmashligini ko'rsatadi va ushbu murakkab sohani o'rganishda turli fanlar o'rtasida muvofiqlashtirilgan hamkorlikni yo'lga qo'yishni tavsiya qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ushbu maqola matnini tayyorlashda kuzatish, umumlashtirish, taqqoslash, ma'lumotlarni yig'ish, xorijiy olimlarning turistik faoliyatidagi ta'limga oid hamda iqtisodiy qarashlari, sohadagi muammolar va ularning yechimlari bo'yicha izlanishlari, shuningdek sohaga doir qonuniy hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm sohasi hozirda to'liq tiklanishga intilar ekan, jiddiy kadrlar muammosiga duch kelmoqda. 2021-yil noyabr oyida Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (OECD) a'zo mamlakatlarning taxminan 60 foizi pandemiyadan avvalgi davrga nisbatan mehmondo'stlik va turizm sanoatida yanada og'irroq mehnat resurslari tanqisligini boshdan kechirdi. Mehnat bozori torayib borar ekan, turizm sanoati global miqyosda keskin raqobatli ishchi kuchi bozorida zarur xodimlar uchun kurashishda tobora qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Bu muammolar ayniqsa raqamlashtirish va barqarorlikka oid sohalarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Barqaror turizmni boshqarish bo'yicha — barqaror yo'nalishlarni boshqarish, ekoturizm va inklyuziv turizmni o'z ichiga olgan — ko'nikmalarga ega mutaxassislariga ehtiyoj ortib bormoqda. Shuningdek, raqamli marketing, ma'lumotlarni tahlil qilish va sun'iy intellekt kabi sohalarida ham mutaxassislar yetishmaydi.

Turizm sohasidagi bu kadrlar tanqisligi kerakli mutaxassislarni jalb eta olmaydigan va ularni saqlab qola olmaydigan korxonalarni raqobatda ortda qoldirishi mumkin. Shu bois turizm sohasida kadrlar yetishmovchiligining oldini olish va kelajak uchun malakali ishchi kuchini shakllantirish maqsadida o'rta hamda oliy ta'limga sarmoya kiritish muhim ahamiyat kasb etadi (UNWTO Education Toolkit – For the Incorporation of Tourism as a Subject in High Schools, 2023) (1-rasm).



1-rasm. Maktablarda turizm fanini joriy etish va targ'ib qilish mexanizmi¹

Sanoatning ta'lim jarayonlariga faol jalb etilishi zamonaviy sharoitda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Birinchidan, ish beruvchilar o'z ehtiyoj va talablarini ta'lim muassasalariga samarali yetkazib berish mexanizmlarini ishlab chiqish lozim. Ikkinchidan, mehnat faoliyati jarayonidagi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish hamda uni keng jamoatchilik uchun qulay va ommaviy shaklda amalga oshirish talab etiladi. Uchinchidan, ta'lim jarayonlari va kasbiy o'sish o'rtasidagi uzviy bog'liqlik yetarli darajada rivojlanmaganligi kuzatilmoqda (Effective Education for Employment: A Global Perspective, 2009).

Maktab ta'limi davrida o'quvchilarning kasb tanlash jarayoni kelajakda ma'lum bir sohaning malakali kadri bo'lib shakllanish jarayonining ilk bo'g'ini hisoblanadi. Shu tufayli O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy hamda turizm salohiyatidan kelib chiqib, o'quvchilarda turizm va mehmondo'stlik industriyasi to'g'risidagi xabardorlikni oshirish, sohaning turli kasbiy xilma-xillik jihatlarini tushuntirish mamlakat taraqqiyotida rivojlangan barqaror turizm sektorining bo'lajak kadrlarini tarbiyalash imkonini yaratishi mumkin.

O'rta maktab o'quv dasturlari ko'pincha majburiy fanlar bilan to'ldirilgan bo'lib, turizm kabi qo'shimcha fanlar uchun deyarli imkoniyat qoldirmaydi. Turizm asosiy o'quv dasturining tarkibiy qismi sifatida qaralmaydi va an'anaviy o'quv dasturi tuzish yondashuvlari ham uning kiritilishiga ustuvor ahamiyat bermaydi. Ba'zi hollarda esa turizm faqat geografiya kabi boshqa fanlar doirasida qisman o'qitilib, uning to'laqonli qamrovi va chuqur yoritilishiga imkon bermaydi. O'rta maktab darajasida to'laqonli kasbiy rivojlanish dasturlarining mavjud emasligi o'quvchilar orasida turizm sohasidagi potensial imkoniyatlar to'g'risida xabardorlikning yetarli shakllanmasligiga olib keladi. Turizm yo'nalishidagi kasb tanlash bo'yicha ongli qaror qabul qilish jarayoni esa o'quvchilar mazkur sohada mavjud bo'lgan kasbiy yo'nalishlarning xilma-xilligiga yetarlicha duch kelmagan sharoitda qiyinlashadi.

Turizmni o'quv dasturlariga integratsiyalash o'quvchilarda shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalar — tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish, muloqot, moslashuvchanlik va madaniy xabardorlikni shakllantiradi. Turizm, shuningdek, chet tillar, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, geografiya hamda iqtisodiyot kabi boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqdir.

Turizm sektori Misr uchun nihoyatda muhim bo'lib, mamlakat YAIMining 15 foizini tashkil etadi. Turizm va Qadimiyatlar vazirligi Maktab ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda maktablarda turizm haqida xabardorlikni oshirish ustida ishlamoqda. Maqsad — o'quvchilarni ushbu sohada kasb tanlashga ilhomlantirishdir. Ushbu tashabbus sifatli ta'lim va o'zgarib borayotgan mehnat bozoriga mos malakali ishchi kuchini ta'minlashga qaratilgan tarkibiy islohot dasturining bir qismi hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limda turizm etikasiga oid mavzular kiritilishi rejalashtirilgan bo'lsa, o'rta ta'limda turizm geografiyasi va rivojlanishiga e'tibor qaratiladi. Bu esa o'quvchilarga Misrning madaniy merosi hamda turizmning ahamiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kanadadagi o'rta maktablarda o'quv dasturi doirasida maxsus turizm dasturlari taklif etiladi. Ushbu dasturlar biznes boshqaruvi, marketing va mijozlarga xizmat ko'rsatish kabi asosiy fanlarni, shuningdek, turizm tamoyillari hamda barqaror amaliyotlarga oid kurslarni o'z ichiga oladi. Ko'plab dasturlarda kooperativ (co-op) yoki amaliyot tajribasi mavjud bo'lib, o'quvchilar mehmonxonalar, sayyohlik agentliklari va boshqa turizm korxonalarida amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi. Maktablar ko'pincha mahalliy turizm tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi, ayrimlari esa sohada tan olingan sertifikatlarni ham taqdim etadi. Bundan tashqari, ushbu o'rta

¹ Manba: World Tourism Organization (2023), UNWTO Education Toolkit – For the incorporation of tourism as a subject in high schools, UNWTO, Madrid, DOI: <https://doi.org/10.18111/9789284424689>



maktab dasturlari o'quvchilarni universitet darajasida turizm bo'yicha keyingi ta'lim olishga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.


Portugaliyada turizm sohasi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, ushbu soha uchun malakali kadrlar tayyorlash maqsadida umumta'lim tizimida muhim fan sifatida o'qitilmoqda. Davlat va xususiy maktablarning o'quv dasturlariga turizm fanining kiritilishi o'quvchilarning sohaga oid bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. O'rta maktab o'quvchilari turizmni ixtisoslashgan fan sifatida tanlash imkoniyatiga ega bo'lib, uning iqtisodiy, madaniy va ekologik jihatlarini tizimli ravishda o'rganadilar. O'quv dasturi turizm boshqaruvi, barqaror rivojlanish tamoyillari, mijozlarga xizmat ko'rsatish, marketing hamda turistik manzillarni tahlil qilish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Davlat maktablari ta'lim jarayonida milliy ko'rsatmalarga amal qilib, o'quvchilarga turizm tamoyillari bo'yicha fundamental bilim berishni ta'minlaydi. Xususiy maktablarda esa ushbu ko'rsatmalar saqlangan holda, o'quvchilarning individual qiziqishlariga moslashtirilgan o'quv dasturlari ishlab chiqiladi. Shuningdek, amaliyot dasturlarining keng qo'llanilishi o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga va nazariy bilimlarni real tajriba bilan uyg'unlashtirishga yordam beradi.

Cambridge Assessment International Education — "Cambridge University Press & Assessment" tarkibiga kiruvchi xalqaro ta'lim tashkiloti bo'lib, o'rta maktablarda sayohat va turizm fanini o'qitish uchun maxsus malaka dasturlari va resurslarni taqdim etadi. U Kembrij universitetiga tegishli yagona xalqaro imtihon kengashi hisoblanadi.

Turizm sohasi uchun Cambridge International quyidagi uchta asosiy malaka dasturini taklif etadi. "Cambridge IGCSE Travel & Tourism" dasturi 14–16 yoshdagi o'quvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, sayohat va turizmning mohiyati, barqarorlik masalalari hamda marketingni o'rganishni qamrab oladi. Ushbu dastur o'quvchilarda tahlil va baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. "Cambridge O-Level Travel & Tourism" IGCSE dasturiga o'xshash bo'lib, turizm sohasi bo'yicha asosiy bilimlarni shakllantiradi va o'quvchilarni keyingi ta'lim yoki mehnat faoliyatiga tayyorlaydi. "Cambridge International AS- va A-Level Travel & Tourism" esa 16–19 yoshdagi o'quvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, turizm sohasini chuqur anglashni ta'minlaydi hamda tadbirlarni tashkil etish orqali amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Turizm sohasining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun mustahkam institutsional va mehnat bozoriga oid poydevor zarur. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarda, balki mamlakatning xalqaro brendi va turizmga nisbatan ijtimoiy qarashlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bandlik sifati, ish haqi darajasining raqobatbardoshligi hamda kasbiy rivojlanish imkoniyatlari sohaning ajralmas tarkibiy qismlari hisoblanadi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, turizmda mehnat qiluvchi mutaxassislar uchun raqobatbardosh maosh ta'minlash va barqaror karyera o'sishi imkoniyatlarini yaratishda sezilarli bo'shliqlar mavjud. Bu esa sohaning uzoq muddatli jozibadorligini pasaytirishi, yosh mutaxassislarning boshqa tarmoqlarga o'tib ketishiga olib kelishi mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Turizm agentligi ta'kidlaganidek, turizm sanoati duch kelayotgan asosiy muammolarni bartaraf etish uchun tizimli yondashuv zarur. Bu jarayon, avvalo, global va milliy miqyosda strategik baholash hamda samarali ijro orqali amalga oshirilishi lozim. Shu bilan birga, UNWTONing alohida e'tibor qaratgan masalalaridan biri turizm sohasida mehnat qiluvchi mutaxassislar uchun ish haqi darajasini oshirish va karyera imkoniyatlarini kengaytirish zaruriyatidir. Ushbu omillar turizmning raqobatbardoshligini ta'minlash, malakali kadrlarni jalb qilish va ularni uzoq muddat davomida saqlab qolishning asosiy shartlari bo'lib xizmat qiladi. UNWTO tomonidan ilgari surilgan ushbu tavsiyalar turizm sohasini nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlik nuqtai nazaridan ham mustahkamlashga yordam beradi (2-rasm).



2-rasm. "Cambridge International"ning sayohat va turizm bo'yicha o'quv va kurs kitoblaridan namunalari²



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorijiy davlatlarda amalga oshirilgan tajribalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, turizm va mehmondo'stlik tarmog'ining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni ushbu sohada tadbirkorlikning rivojlanishi, ta'lim tizimining samarali tashkil etilishi hamda jamiyatda sohaga nisbatan shakllangan munosabat va qarashlarga chambarchas bog'liqdir. Turizm bozorida malakali kadrlar sonini oshirish uchun, avvalo, mamlakat ichki aholisi o'rtasida ushbu sohaning moddiy va ma'naviy samaradorlik salohiyati to'g'risida xabardorlikni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday maqsadlarga erishish yo'lida bir qator davlatlar ta'lim tizimlarida maktab yoshidan boshlab o'quvchilarda turistik etika qoidalari, barqaror rivojlanish prinsiplari, turizm menejmenti va iqtisodiyoti bo'yicha boshlang'ich bilim hamda ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan dasturlarni joriy etishgan. Ushbu islohotlar natijasida o'quvchilarning kasbiy tanlovida sayohat va turizm industriyasi muhim yo'nalish sifatida qaralmoqda, jamiyatda sohaga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishiga esa bevosita turtki bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Darbellay, F., & Stock, M. (2012). Tourism as complex interdisciplinary research object. *Annals of tourism research*, 39(1), 441-458.
2. Kim, S.; Klager, C.; Schneider, B. The Effects of Alignment of Educational Expectations and Occupational Aspirations on Labor Market Outcomes: Evidence from NLSY79. *J. High. Educ.* 2019, 90, 992–1015.
3. OECD. Vocational Education and Training (VET) and Adult Learning. OECD Publishing, Paris, online available at <https://www.oecd.org/education/innovation-education/vet.htm> (07-01-2023).
4. OECD (2018). OECD Future of Education and Skills 2030, Curriculum analysis. OECD Publishing, Paris, online available at <https://www.oecd.org/education/2030-project/curriculum-analysis/> (07-01-2023).
5. <https://www.oecd.org/education/2030-project/curriculum-analysis/> (07-01-2023).
6. World Tourism Organization (2023), UNWTO Education Toolkit – For the incorporation of tourism as a subject in high schools, UNWTO, Madrid, DOI: <https://doi.org/10.18111/9789284424689>.
7. World Tourism Organization (2023). Sustainable Development | UNWTO. UNWTO, Madrid, online available at <https://www.unwto.org/sustainable-development> (07-01-2023).
8. World Tourism Organization (2023). Tourism is on track for a full recovery as new data shows strong start in 2023. UNWTO, Madrid, online available at <https://www.unwto.org/news/tourism-grows-4-in-2021-but-remains-far-below-pre-pandemic-levels> (07-01-2023).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
